



KORXONALARDA SOLIQ TO'LOVLARI BO'YICHA IMTIYOZLAR VA PREFERENSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

A'zamova Aziza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-1083-4789

zizaazamova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda soliq to'lovlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalarning hisobini yuritish tizimini takomillashtirish masalalari o'rganiladi. Soliq imtiyozlarining turli shakllari, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda korxona faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, imtiyozlar hisobini yuritishda yuzaga kelayotgan muammolar, mavjud me'yoriy-huquqiy asoslar va axborot tizimlari bilan integratsiyalash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan taklif va tavsiyalar orqali soliq preferensiyalarining shaffof va samarali hisobini yuritish bo'yicha takomillashgan yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari, korxona moliyasi, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, raqamli hisob tizimlari, iqtisodiy samaradorlik, hisob yuritish tizimi, soliq hisobotlari, xalqaro tajriba.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ И ПРЕФЕРЕНЦИЙ В ПРЕДПРИЯТИЯХ

Азамова Азиза

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы учёта налоговых льгот и преференций, предоставляемых предприятиям. Анализируются различные формы налоговых послаблений, их экономическая эффективность и влияние на деятельность организаций. Также освещаются проблемы, возникающие в процессе ведения учёта налоговых льгот, существующая нормативно-правовая база и возможности интеграции с информационными системами. На основе передового международного опыта в статье разработаны усовершенствованные подходы к обеспечению прозрачного и эффективного учёта налоговых преференций, а также предложены конкретные рекомендации.

Ключевые слова: налоговые льготы, налоговые преференции, корпоративные финансы, налоговая политика, налоговое администрирование, цифровые учётные системы, экономическая эффективность, система бухгалтерского учёта, налоговая отчётность, международный опыт.

IMPROVING THE ACCOUNTING OF TAX BENEFITS AND PREFERENCES IN ENTERPRISES

Azamova Aziza

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the issues related to improving the accounting system for tax benefits and preferences granted to enterprises. It analyzes various forms of tax relief, their economic efficiency, and their impact on business operations. The article also highlights the challenges encountered in maintaining tax benefit records, the existing legal and regulatory framework, and the possibilities for integration with information systems. Based on advanced international experience, the study proposes improved approaches to ensuring transparent and efficient accounting of tax preferences, along with specific recommendations for implementation.*

Keywords: *tax benefits, tax preferences, corporate finance, tax policy, tax administration, digital accounting systems, economic efficiency, accounting system, tax reporting, international experience.*

Kirish.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiy muhitda soliq imtiyozlari va preferensiyalar korxonalarning moliyaviy holatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday imtiyozlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, sarmoyalar jalb qilish va mamlakatning turli sohalarini rivojlantirish maqsadida joriy etiladi. Biroq, soliq imtiyozlarining samarali boshqarilishi va to'g'ri hisob-kitob qilinishi korxonalar va soliq organlari uchun muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Soliq qonunchiligining murakkabligi, imtiyozlarning turli shakllari hamda hisobotlik tizimlarining raqamlashtirilishi bu sohadagi hisob-varaqlar usullarini doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Soliq imtiyozlarini to'g'ri hisoblash nafaqat qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlaydi, balki ishonchli va ochiq moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ko'pgina korxonalar soliq imtiyozlarini aniq va to'g'ri qayd etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa davlat uchun daromad yo'qotishlari va biznes bilan soliq idoralari o'rtasidagi ishonchning susayishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarini soliq ma'muriyatchiligiga integratsiya qilish esa soliq imtiyozlari hisobini yuritishni soddalashtirish va takomillashtirishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Ushbu maqolada korxonalarda soliq imtiyozlari hisobini yuritishning amaliy holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va xalqaro ilg'or tajribalar hamda raqamli yechimlarga asoslangan takomillashgan yondashuvlar taklif qilinadi. Maqsad – soliq preferensiyalarining ochiq va samarali hisobini ta'minlash orqali soliq tizimining faoliyatini yaxshilash va biznes muhitini yanada qo'llab-quvvatlashdir.

Adabiyotlar sharhi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliq hisobini samarali yo'lga qo'yish va soliq auditini takomillashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan, bugungi kunda ham bu boradagi ilmiy izlanishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Xususan ukrainalik mutaxassis Kotsupatry (2019) "soliq hisobi bir tomondan, davlatning biznes faoliyatiga ortiqcha aralashuvini kamaytirishni, ikkinchi tomondan esa, soliq intizomining tegishli darajasini ta'minlash va soliq tushumlarini oshirishni kafolatlashi lozim", deb ta'kidlaydi.

Nigeriyalik mutaxassis Olaoye Nigeriyaning Lagos shtati misolida soliq auditining soliq unumdorligiga ta'sirini o'rgangan va "tadqiqot natijalariga ko'ra, sayyor soliq tekshiruv, kameral soliq tekshiruv va soliq tekshiruvlari yakunlari bo'yicha o'tkaziladigan soliq tekshiruv soliq unumdorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan".

Efiopiyalik mutaxassis Nurebo (2019) “soliq auditi samaradorligiga soliq to'lovchilarning xabardorlik darajasi, soliq hisobini avtomatlashtirish ijobiy ta'sir ko'rsatishini ekonometrik modellashtirish” asosida isbotlaydi.

Rossiyalik mutaxassis Orlov (2011) o'z tadqiqotlarida “ soliq auditi borasida bibliometrik tahlillarni amalga oshiradi va soliq auditining korxona hisob siyosatini takomillashtirishdagi o'rnini ochib beradi”.

Rovenskiy (2013) “ soliq auditi turlarining maqsadli qo'llanilishi masalalariga” o'z tadqiqotlarida katta urg'u bergan .

Axmetshin (2014) “audit tizimida soliq auditining o'rnini masalalarini” o'z tadqiqotlarida ochib berishga harakat qilgan.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliq hisobi va auditini takomillashtirish borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta'kidlash lozim. Xususan, Sunnatov (2024) “soliq auditi orqali soliq risklarini minimallashtirish va bu boradagi xorijiy tajribalarni” tadqiq qilgan.

Fozilov (2025) “soliq tekshiruvlari va soliq auditining o'zaro bog'liqligi” masalalariga o'z tadqiqotlarida katta e'tibor qaratgan mahalliy mutaxassislardan biri hisoblanadi.

Turumova (2025) “soliq auditida muhimlik va risk tushunchalariga” e'tibor qaratgan.

Meliyev (2024) “MDHda xalqaro audit standartlaridan foydalanishning xususiyatlari”ni o'z tadqiqotlarining markaziga qo'yadi va bu borada amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari suradi.

Shu bilan birga, korxonalarda soliq hisobini samarali tashkil etish, uning shaffofligini ta'minlash va soliq auditini korxona boshqaruvining doimiy vazifasi sifatida joriy etishga oid nazariy va amaliy bilimlar hali etarli darajada shakllanmagan. Soliq hisobining yuritilishida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, ushbu jarayonni aniq va to'liq qamrab oladigan auditorlik tadbirlarining etishmasligi metodologik jihatdan chuqur tahlil etilmagan. Shu bois, bozor munosabatlari va raqobat muhiti kuchayib borayotgan sharoitda, korxonalarda soliq hisobini to'g'ri tashkil etish, uning asosida soliq auditini samarali o'tkazish, soliq majburiyatlarini baholash va soliq risklarini oldindan aniqlashga qodir tizimni shakllantirish hamda soliq intizomini mustahkamlash mexanizmlarini takomillashtirish — zamonaviy iqtisodiy muhitda dolzarb va ilmiy jihatdan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqot jarayonini puxta tashkil etish va muammolarni kompleks tarzda o'rganish maqsadida bir qator metodologik usullardan keng foydalanilgan. Xususan, ilmiy abstraktsiyalash usuli orqali mavjud hodisalar va jarayonlarni umumlashtirish va zarur jihatlarni ajratib olish imkoniyati yaratilgan. Tahlil va sintez usullari tadqiqot obyektiining turli tomonlarini chuqur o'rganish hamda uning komponentlarini alohida va umumiy tarzda tahlil qilish imkonini bergan.

Induktsiya va deduktsiya usullari orqali umumiydan xususiyyga va xususiyydan umumiyga qarash yo'lidagi fikrlash jarayonlari amalga oshirilgan, bu esa nazariy va amaliy natijalarni bir-biri bilan uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Tizimli yondashuv tadqiqot obyektiini bir butun tartibida, uning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro aloqalari jihatidan o'rganishni ta'minlagan.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida milliy va xalqaro amaliyot tafovutlari hamda o'xshashliklari aniqlangan, bu esa samarali metodik echimlarni ishlab chiqishga zamin yaratgan. Iqtisodiy-statistik tahlil usullari tadqiqotda olingan ma'lumotlarning shakllanishi, tarkibi va dinamikasini aniqlashda, shuningdek obyektiv tahlil olib borishda keng qo'llanilgan.

Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash usullari orqali hodisalarning kelgusidagi rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, ularga ta'sir qiluvchi omillarni baholash va taklif etilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini ilmiy asosda baholash imkoniyati yaratilgan. Mantiqiy va sabab-oqibat tahlil usullari tadqiqot obyektlarining ichki va tashqi munosabatlarini chuqur tushunish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq tizimining muhim elementlaridan biri bo'lib soliq imtiyozlari va preferentsiyalari hisoblanadi. "Soliq imtiyozlari – bu soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqalarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklardir" (Panskov,2016). Ularning ichida soliq to'lashdan to'liq ozod qilish, soliq stavkasini kamaytirish yoki belgilangan muddatga soliqlarni to'lashni kechiktirish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, 75-moddada aniq ko'rsatilishicha, "soliqlarni to'lash muddatini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati soliq imtiyozi sifatida qabul qilinmaydi.

Ushbu moddaga muvofiq, soliq imtiyozlari faqat ushbu Kodeks bilan belgilangan qoidalar doirasida amalga oshiriladi va ular individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, soliq imtiyozlari umumiy va aniq belgilangan me'yorlar asosida taqdim etiladi.

Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va aktsiz solig'iga oid imtiyozlar maxsus cheklovlariga ega. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish mumkin, bu kamaytirish esa 50 foizdan ortiq bo'lmasligi va uch yil muddatdan oshmasligi shart" (Soliq Kodeksi,2019).

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, "soliq imtiyozlari iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llaniladi" (Graham,2000). Ammo soliq imtiyozlarining axborot tizimlarida maxsus identifikatsiya kodlari orqali qayd etilishi ularning shaffofligi va monitoringini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlarini taqdim etishda byudjet mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi shartligi ta'kidlangan. Maqsadsiz yoki belgilagan muddatda foydalanilmagan mablag'lar penya bilan byudjetga qaytarilishi lozim.

Soliq imtiyozlari bilan birga, soliq preferentsiyalari ham qo'llaniladi. Preferensiya so'zi lotin tilidagi "*praeferentia*" so'zidan olingan bo'lib, ustunlik, imtiyoz ma'nosini anglatadi. "Soliq preferentsiyasi alohida korxonalarga ma'lum faoliyat turini qo'llab-quvvatlash uchun soliq to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarni bildiradi. Soliq preferentsiyasi davlat tomonidan soliq to'lovlari bo'yicha erkin iqtisodiy zonalarga, kichik sanoat zonalariga, turli ishlab chiqarish klasterlariga, korxonalarga ma'lum faoliyat turi bo'yicha bergan imtiyozlari bo'lib, ular manzilli hisoblanadi. Soliq preferentsiyalari soliq kodeksida aks ettirilmaydi, lekin xukumatning tegishli me'yoriy hujjatlarida o'z aksini topib, soliq to'lovlarini to'lashda qo'llaniladi" (Greene,2014).

Soliq imtiyozlarini tizimlashtirish – bu ularni muayyan mezonlarga asoslanib aniq guruhlariga taqsimlash jarayonidir. Bu tizimli yondoshuv imtiyozlarning turlari va xususiyatlarini chuqurroq tushunishga hamda ularni samarali boshqarishga imkoniyat beradi. Amaldagi soliq imtiyozlari tasnifi ko'pincha murakkab va notekshirilgan holda taqdim etilgan bo'lib, shu sababli ularni asosiy klassifikatsiyalash belgilariga muvofiq tartibga solish zarurligi mavjud.

Soliq imtiyozlarining maqsad va vazifalariga qarab ular quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: o'rnini to'ldiruvchi, kafolatlovchi, rag'batlantiruvchi, takror ishlab chiqarish, investitsiyaviy, tartibga soluvchi hamda ijtimoiy imtiyozlar. Bu turlar har biri iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda turli vazifalarni bajaradi va soliq siyosatining turli yo'nalishlarida qo'llaniladi.

Shu tarzda soliq imtiyozlarini tizimlashtirish ularning maqsadli va maqbul qo'llanilishini ta'minlash, shu bilan birga soliq siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).

Bir vaqtning o'zida bitta soliq imtiyozi bir necha turkumga kiradi, chunki u ko'p yo'nalishli va kumulyativ ta'sirga ega bo'lgan dastak hisoblanadi. Shu bois, imtiyozlarni maqsadi yoki bajaradigan vazifasiga ko'ra kattaroq guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Shu asosda soliq imtiyozlari quyidagi asosiy toifalarga bo'linadi:


1. **Iqtisodiy imtiyozlar** — bu turdagi imtiyozlar tadbirkorlik faoliyatini, investitsiyalarni va innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning moliyaviy-

iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadini ko'zlaydi. Masalan, tezlashtirilgan amortizatsiya, investitsiyaviy soliq krediti, soliq amnistiya kabi choralar shular jumlasidan.

2. **Ijtimoiy imtiyozlar** — ijtimoiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, ular turar joy shartlarini yaxshilash, ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

3. **Umumiy imtiyozlar** — kompleks vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lib, masalan, maxsus iqtisodiy zonalarda soliq rejimlarini joriy etish, qoloq hududlarni rivojlantirish, birlamchi ehtiyoj tovarlariga soliq stavkalari pasaytirilishi, muhim tibbiy mahsulot va uskunalarni soliqdan ozod qilish kabilar kiradi.

Bunday tasniflash soliq imtiyozlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularni taqqoslash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Soliq imtiyozlarini tizimlashtirish

Soliq-byudjet siyosatining tartibga soluvchi vositasi sifatida soliq imtiyozlari samaradorligini tahlil qilishdan avval, avvalo ularni joriy etish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'sirlar aniqlanishi va baholanishi lozim. Mazkur tahlil natijalari esa keyinchalik ushbu chora-tadbirlarning samaradorligini baholashga doir ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi kerak.

Samaradorlikni baholash — bu belgilangan natija (ta'sir)ni ushbu natijaga erishish uchun sarf etilgan resurslar bilan solishtirishdan iborat. Ya'ni har qanday iqtisodiy vositaga berilgan imtiyozning haqiqiy foydasini, u keltirgan ijobiy o'zgarish va sarf-xarajatlar o'rtasidagi nisbat orqali o'lchash mumkin.

Ayni paytda soliq imtiyozlarining samaradorligini aniq baholashdagi asosiy muammolardan biri — normativ-huquqiy hujjatlarda aniq bir imtiyozga tegishli ravishda uni taqdim etish maqsadi va kutilgan natijalarni aniq ko'rsatuvchi indikatorlarning mavjud emasligidir. Bu esa baholash jarayonini jiddiy murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, biror natijaga erishishga faqat bitta soliq turi bo'yicha taqdim etilgan imtiyoz emas, balki boshqa soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlar yoki umuman boshqa iqtisodiy vositalar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, investitsiyalar hajmini oshirish maqsadiga bir vaqtning o'zida bir nechta soliq turlari bo'yicha imtiyozlar qaratilgan bo'lishi mumkin. Natijada, aniq bir imtiyoz orqali yuzaga kelgan ta'sirni "toza" holatda ajratib olish qiyinlashadi, chunki bir xil imtiyoz turli xil natijalarga olib kelishi, yoki ta'sir doirasida boshqa omillar ham ishtirok etgan bo'lishi mumkin.

Soliqlar — ko'p vektorli ta'sirga ega bo'lgan vosita hisoblanadi. "Soliq imtiyozlarini ular yuzaga keltirgan aniq ta'sirlar bilan solishtirish esa juda murakkab vazifadir. Ba'zi hollarda, "ayni natija aynan qaysi imtiyoz orqali yuzaga kelganini aniqlash imkoni yo'q" degan fikr yuzaga chiqadi" (Blouin,2010). Shu bois, soliq imtiyozlarini baholashda an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda innovatsion, kompleks va murakkab tahlil usullarini qo'llash talab etiladi.

Mayburovning (2013) fikricha, "soliq imtiyozlarining ta'sirini baholashda nisbatan sodda yondashuv qo'llanilishi mumkin: tahlil etilayotgan natijaning umumiy o'sishi shu natijaga ta'sir ko'rsatgan imtiyozlar soniga bo'linadi. Boshqacha aytganda, umumiy samara alohida imtiyozlar ta'sirining o'rtacha ko'rsatkichi sifatida qaraladi".

Biroq, bizning fikrimizga ko'ra, bunday yondashuv muayyan darajada tahlilda sezilarli xatoliklarga olib kelishi mumkin, chunki u barcha imtiyozlar tahlil etilayotgan natijaga bir xil darajada ta'sir qilgan, degan umumiy va noaniq taxminga asoslanadi. Agar ushbu natija bir nechta imtiyozlarning yig'indili ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, u holda tahlil va baholash butun imtiyozlar guruhiga nisbatan amalga oshirilishi lozim.

Agar tahlilda aniq bir soliq imtiyozining ta'sirini belgilash vazifasi qo'yilgan bo'lsa, u holda uning ahamiyatini aniqlash talab etiladi. Biz, bunday ahamiyatni imtiyozlar guruhi umumiy qiymatidagi mazkur imtiyozning salmoqli ulushi orqali baholash mumkin, deb hisoblaymiz. Ya'ni, imtiyozning natijaga ta'sirini uning guruhdagi foiz ko'rsatkichi orqali ifodalash mantiqiy yondashuv sifatida qaralishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, soliq imtiyozlari samaradorligini baholashdagi eng muhim muammolardan biri — bu yuzaga kelgan ta'sirlarni aniq bir imtiyozning amal qilinishi bilan asosli bog'lash masalasidir. Ta'sirni shunchaki kuzatish etarli emas; uning manbasini to'g'ri va ilmiy asoslangan tarzda aniqlash zarur.

Soliq imtiyozlarining ta'sirini baholashda ularni taqdim etishdan ko'zlangan maqsad nuqtai nazaridan qaraganda, ularning turli shakldagi namoyon bo'lishini — ya'ni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita samaralarini ajratish mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri ta'sir — bu soliq imtiyozi joriy etilganidan so'ng yuzaga keladigan bevosita natijalar hisoblanadi. Masalan, investitsiyaviy xarakterga ega bo'lgan imtiyozlar holatida to'g'ridan-to'g'ri ta'sir kapital qiymatining, xususan, asosiy vositalarning ko'payishi orqali namoyon bo'ladi. Soliq imtiyozi bilan ta'minlangan subyekt investitsiya qiladi va natijada uning asosiy vositalari qiymati ortishi kuzatiladi.

Biroq, investitsiyalar nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki bilvosita ta'sirlarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar natijasida ishlab chiqarish hajmlari ortishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, foyda miqdorining ko'payishi kabi holatlar kuzatiladi.

Yaratilgan qo'shimcha ish o'rinlari aholi bandligini oshiradi, bu esa o'z navbatida aholi daromadlarini ko'paytirib, to'lov qobiliyatiga ega talabning o'sishiga olib keladi. Bu esa o'z-o'zidan yangi bilvosita ta'sirlar — iqtisodiy o'sish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi, soliq tushumlarining ko'payishi kabi samaralarni yuzaga keltiradi. Shu tariqa, to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlar bilan birga, ularning multiplikativ ta'siri orqali iqtisodiyotda keng qamrovli ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.

Mayburovning fikricha, "soliq imtiyozlarining ta'sirlarini amalga oshirilish sohasiga qarab to'rt turga bo'lish mumkin:

1. Fiskal samara — bu soliq imtiyozlari natijasida kelgusidagi soliq daromadlarining hozirgi soliq sarflaridan yuqori bo'lishi bilan ifodalanadi. Ya'ni, bu davlat byudjetining soliq tushumlari jihatdan o'sishini anglatadi.

2. Ijtimoiy samara — aholining turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini saqlash va yaratish kabi ijtimoiy ko'rsatkichlar orqali o'zini ko'rsatadi. Bu effektni aniq baholash qiyin, chunki ijtimoiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga nafaqat soliq imtiyozlari, balki byudjetdan ijtimoiy dasturlarga ajratilgan mablag'lar va umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muhit ham ta'sir qiladi.

3. Iqtisodiy samara — soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari kamayishi yoki yo'qolishi tufayli ularda qolgan moliyaviy resurslarning ortishi bilan namoyon bo'ladi. Bu resurslar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangilash, asosiy vositalarni sotib olish va texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi mumkin, bu esa yangi ish o'rinlarini yaratish va daromadni oshirishga sabab bo'ladi.

4. Byudjet samarasi — yuqoridagi uchta samaraning umumiy ko'rinishi bo'lib, soliq bazasining kengayishi va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish uchun byudjet xarajatlarning tejalishi orqali davlat byudjetiga tushumlarning o'sishini aks ettiradi" (Mayburov, 2022).

Fikrimizcha, muallif tomonidan ajratib ko'rsatilgan fiskal samara byudjet samarasi bilan uyqash, chunki har ikkisi ham soliq imtiyozining amalga oshirilishi natijasida kelgusidagi soliq tushumlarining (masalan, soliq bazasining kengayishi orqali soliq tushumlarining oshishi) va hozirgi soliq xarajatlarning munosabatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tajribasini (jumladan, mintaqaviy darajadagi) umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ularning amalga oshirilish sohasiga qarab uchta asosiy (byudjet, ijtimoiy va iqtisodiy) samara guruhi mavjud.

Byudjet samarasi — soliq imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlari shakllanishiga ta'sirini ifodalaydi va amaliyotda quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

- Byudjet daromadlarining kelgusida o'sishi, ya'ni soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida soliq bazasining kengayishi orqali davlatga tushadigan soliq tushumlarining ortishi. Bunda hozirgi davrdagi soliq xarajatlari kelgusidagi soliq daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- Byudjet xarajatlarning optimallasuvi, ya'ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning alternativ usullariga (masalan, to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar) nisbatan soliq imtiyozlari orqali xarajatlarni qisqartirish. Bu holda soliq imtiyozlari shartli ravishda "bilvosita" yordam vositasi sifatida hisoblanadi va uning xarajat samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam turlari bilan taqqoslanadi.

Ushbu yondashuv soliq imtiyozlarining moliyaviy samarasini hisoblashda byudjet manfaatdorligini markaziy o'ringa qo'yadi va ularni iqtisodiy siyosat vositasi sifatida baholashda aniq mezonlar belgilash imkonini yaratadi.

Xulosa va takliflar.

Soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning hisobini takomillashtirish nafaqat ularning samaradorligini oshirish, balki davlat moliyaviy resurslaridan oqilona va manzilli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda soliq siyosatini yanada takomillashtirishda imtiyozlarning hisobini aniq yuritish, ularni baholash va monitoring qilish mexanizmlarining mavjudligi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki imtiyozlar asosan iqtisodiy rag'batlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi va ularning noto'g'ri boshqarilishi yoki nazoratsiz qoldirilishi davlat byudjetiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Soliq imtiyozlari bo'yicha hisob-kitob jarayonini takomillashtirish uchun birinchi navbatda raqamli axborot tizimlaridan keng foydalanish lozim. Bu orqali real vaqt rejimida barcha imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona platforma asosida shakllantirish, soliq to'lovchi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlar kesimida tahlillarni olib borish, soliq ma'muriyatchiligining ochiqqligini va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, har bir imtiyoz turiga alohida identifikatsiya kodi berilishi, ularning qo'llanilish doirasi, muddati, moliyaviy ekvivalent qiymati va foydalanuvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarning markazlashgan tizimda yuritilishi amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bunday yondashuv imtiyozlarning noqonuniy yoki maqsadsiz ishlatilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, imtiyozlarning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy samaradorligini baholovchi aniq mezon va indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarur. Misol uchun, imtiyoz orqali yaratilgan ish o'rinlari soni, qo'shilgan qiymat hajmi, eksport salohiyati yoki hududiy rivojlanish darajasiga ta'siri kabi mezonlar asosida har bir preferentsiyaning davlat va jamiyat uchun qanday real foyda bergani aniqlanishi mumkin.

Bu kabi tizimlashtirilgan yondashuv natijasida:

- Davlat byudjetiga tushumlar ko'payadi, chunki soliq imtiyozlari ortida yashirin bo'lib qolgan soliq bazalari aniqlanadi;
- Davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanadi, ya'ni keraksiz yoki samarasiz imtiyozlar bekor qilinadi;
- Imtiyozlarning maqsadli yo'naltirilganligi oshadi, chunki ular faqat iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga beriladi;
- Nazorat va audit mexanizmlari takomillashadi, ya'ni har bir imtiyoz bo'yicha chuqur va sifatli tahlil, monitoring va audit ishlari amalga oshirish imkoniyati yaratiladi;
- Qonuniylik va shaffoflik ta'minlanadi, bu esa tadbirkorlar va soliq organlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, soliq imtiyozlari va preferentsiyalarini raqamli boshqaruv vositalari asosida hisobga olish va tahlil qilish tizimining yaratilishi — zamonaviy soliq ma'muriyatchiligining ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishda muhim vositadir. Kelgusida bu boradagi ishlar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro tajribalar asosida ham takomillashtirilishi lozim.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdumannonovna, T.D. & Islomov, D.B. (2025). Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk tushunchasi. *International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies*, 14.

Abdovokhidov, A.A. et al. (2021). Mechanisms of import substitution policy in the region. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 45–59.

Blouin, J., Core, J.E. & Guay, W. (2010). Have the tax benefits of debt been overestimated? *Journal of Financial Economics*, 98(2), 195–213.

Fozilov, Z. (2025). Soliq tekshiruvlari amaliyotida yuridik shaxslarning soliq intizomi va auditning roli. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 4(15), 123–125.

- Graham, J.R. (2000). How big are the tax benefits of debt? *The Journal of Finance*, 55(5), 1901–1941.
- Greene, J. & Braathen, N.A. (2014). Tax preferences for environmental goals: use, limitations and preferred practices.
- Kotsupatryi, M., Novak, N. & Sarapina, O. (2019). Improving and raising the effectiveness of audit of tax accounting at the agricultural enterprises. *University Economic Bulletin*, 41, 15–21.
- Meliyev, I. (2024). Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 1(1).
- Nurebo, B.Y. & Lakew, D.M. (2019). Effectiveness of tax audit: A study in Kembata Tembaro zone, Southern Ethiopia. *International Journal of Commerce and Finance*, 5(1), 34–50.
- Kodeks (2019) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/4674902>
- Olaoye, C.O., Ogunleye, S.A. & Solanke, F.T. (2018). Tax audit and tax productivity in Lagos state, Nigeria. *Asian Journal of Accounting Research*, 3(2), 202–210.
- Sunnatov, M. (2024). Soliq auditi natijasida paydo bo'ladigan soliq risklari va ularni minimallashtirish yo'llari. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(10), 696–704.
- Абдувохидов, А., Кадырова, Д. & Обилов, М. (2023). Пути совершенствования доходной базы местных бюджетов в Узбекистане. *Экономическое развитие и анализ*, 1(1), 4–12.
- Ахметшин, А.Ф. (2014). Налоговый аудит как отдельный элемент в системе общего аудита. *Статистика и экономика*, 6, 37–41.
- Майбуров, И. (2013). Оценка налоговых расходов и эффективности налоговых льгот: методология решения задачи. *Общество и экономика*, 4, 71–91.
- Майбуров, И. и др. (ред.) (2022). *Налоговая политика. Теория и практика*. Litres.
- Орлов, Д.В. (2011). К вопросу о понятии «Налоговый аудит». *Вестник Пермского университета. Серия: Экономика*, 4, 6–17.
- Пансков, В.Г. (2016). *Налоговые льготы: теория и практика применения*. Экономика. Налоги. Право, 1, 119–125.
- Ровенских, В.А. & Слабинская, И.А. (2013). Налоговый аудит в современных условиях. *Вестник БГТУ имени В.Г. Шухова*, 5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovyy-audit-v-sovremennyh-usloviyah> (дата обращения: 29.08.2025).